

“IFRS” HOMLI
KONFERENCIYA

CONFERENCE “GLOBAL AND NATIONAL ECONOMIC

TRENDS”

2nd FORUM OF
DEVELOPMENT
STRATEGY:
GLOBAL AND
NATIONAL
ECONOMIC
TRENDS



TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS

1 йўналиш: ГЛОБАЛ
ИҚТИСОДИЁТНИ
РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ
ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ ВА
ИСТИҚБОЛЛИ ЙўНАЛИШЛАРИ
“Глобал ва миллий
иқтисодий трендлари”

CONFERENCE

19-20
OCTOBER

ФОРУМ

PARALLEL CONFERENCES
“NEW2AN, ICFNDS
AND ICDSIS”

2nd FORUM OF
DEVELOPMENT
STRATEGY:
GLOBAL AND
NATIONAL
ECONOMIC
TRENDS

“NEW2AN, ICFNDS AND ICDSIS”

CONFERENCE
“IFRS”

GLOBAL
ECONOMIC
TRENDS

2nd FORUM OF
DEVELOPMENT
STRATEGY:

“IFRS”

2nd FORUM
DEVELOPMENT

RAQAMLI IQTISODIYOT VA AXBOROT TEKNOLOGIYALARI

2023

ELEKTRON ILMIY JURNALI / MAXSUS SON

- Innovation in
education

ФОРУМ

19-20 OCTOBER

PARALLEL CONFERENCES

“NEW2AN, ICFNDS

AND ICDSIS”

РАҚАМЛИ ИҚТИСО
АХБОРОТ ТЕХНОЛ
ВА ТАЪЛИМНИНГ
ИСТИҚБОЛЛИ ЙўН
“NEW2AN, ICFNDS,
номли параллель
конференциялар

- Macroeconomic Stability
- Social Welfare
- Human Capital
- Decent Employment
- World Economy
- Gender Equality
- Industry 4.0
- Sustainable Agriculture



РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ВА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ
DIGITAL ECONOMY AND INFORMATION TECHNOLOGY
ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА И ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ

Электрон илмий журнал | Electronic scientific journal

МУАССИС | FOUNDER

Тошкент давлат иқтисодиёт университети
Tashkent State University of Economics

ТАҲРИР КЕНГАШИ РАИСИ | CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD

Шарипов Конгратбой Аvezимбетович — т.ф.д., профессор
Sharipov Kongratboy Avezimbetovich — doctor of technical sciences, professor

БОШ МУҲАРРИР | EDITOR-IN-CHIEF

Абдуллаев Мунис Курбонович – и.ф.ф.д. (PhD), доцент
Abdullayev Munis Kurbonovich – PhD, docent

БОШ МУҲАРРИР ЎРИНБОСАРИ | DEPUTY CHIEF EDITOR

Вафоев Бобуржон Расулович – и.ф.н., доцент
Vafoev Boburjon Rasulovich – PhD, docent

МАСЪУЛ КОТИБ | EXECUTIVE SECRETARY

Л.А. Аблазов | L.A. Ablazov

ВЕБ-АДМИНИСТРАТОР | WEBMASTERS:

Н.Я. Нурсаидов, А.Ш. Махмудов | N.Ya. Nursaidov, A.Sh. Makhmudov

ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ | EDITORIAL BOARD

С.С. Гулямов – и.ф.д., академик.
Б.А. Бегалов – и.ф.д., профессор.
М.П. Эшов – и.ф.д., профессор.
О.Қ. Абдурахмонов – и.ф.д., доцент.
К.Б. Ахмеджанов – и.ф.д., профессор.
И.М. Алимардонов – и.ф.д., доцент.
Р. Салиходжаев – и.ф.б.ф.д. (PhD).
Проф. Холназар Амонов (Чехия).
Проф. Карина Татек Банетти (Чехия).
Проф. О. Абдураззаков (Германия).
Проф. Эко Шри Маргианти (Индонезия).
Проф. Д.М. Назаров (Россия).
Проф. Н.М. Сурнина (Россия).
Проф. Марк Розенбаум (АҚШ).
PhD. Абдул-Рашид (Афғонистон).
PhD. Аҳмед Моҳамед Азиз Исмоил (Миср).

PhD. Беҳзод Саидов (АҚШ).
PhD. Умид Ахмедов (Дания Қироллиги).
А.А. Исмаилов – и.ф.д., профессор.
И.Е. Жуковская – и.ф.д., профессор.
Т.С. Қўчқоров – и.ф.д., профессор.
Р.А. Дадабаева – и.ф.н., доцент.
Ш.И. Хашимходжаев – и.ф.н., доцент.
А.А. Абидов – т.ф.н., доцент.
И.М. Абдуллаева – и.ф.н., доцент.
Н.Б. Абдусаломова – и.ф.д., доцент.
Ш.С. Эгамбердиев – и.ф.б.ф.д. (PhD).
Р.Х. Алимов – и.ф.д., профессор.
А.У. Қобилов – и.ф.н., доцент.
Р.Х. Насимов – т.ф.б.ф.д. (PhD).
С.С. Қулматова – и.ф.б.ф.д. (PhD).

МУНДАРИЖА:

Шарипов К.А., Ишназаров А.И.	ИҚТИСОДИЙ ЎСИШГА ИНВЕСТИЦИЯ ОҚИМЛАРИ ТАЪСИРИНИ ЭКОНОМЕТРИК ТАДҚИҚ ҚИЛИШ	6
Eshov M.P., Nasirkhodjaeva D.S.	IMPACT OF THE DEVELOPMENT DIGITAL ECONOMY ON THE SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT OF THE COUNTRY	14
Abdurahmanova G.Q., Mirzaliyev S.M.	OLIV TA'LIM TRANSFORMATSIYASINING TASHKILY-IQTISODIY MEKANIZMLARI	25
Гулямов С.С., Шермухамедов А.Т.	ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ	28
Abdullayev M.K., Qulmatova S.S.	LOYIHALASH JARAYONLARIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHDA DIZAYN MUAMMOLARI	34
Абидов А.А.	ДИАГНОСТИРОВАНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ В УСЛОВИЯХ ВОЗМУЩАЮЩЕГО ВОЗДЕЙСТВИЯ СРЕДЫ	40
Юлдашев А.А.	ЛОГИСТИКА СОҲАСИДА БЛОКЧЕЙН ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИ ҚЎЛЛАШ САМАРАДОРЛИГИ	47
Yakubova Sh.Sh.	DIGITAL DEVELOPMENT AND THE NATURE OF DIGITAL ASSETS	56
Ergashodjayeva Sh.Dj.	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XARIDORLAR MA'LUMOTLARI MAXFIYLIGINI TA'MINLASH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR	64
Xashimxodjayev Sh.I., Zhukovskaya I.E.	DIGITAL TECHNOLOGIES ARE A STRONG BASIS FOR THE SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT OF THE COUNTRY	72
Амридинова Д.Т., Курбанова С.А.	ЦИФРОВАЯ ЭКАНОМИКА И ОНЛАЙН ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	79
Fayziyeva Kh., Tursunov Kh., Khidirova M., Kulmanov T., Zikriyoev A.	GROWING UP IN A CONNECTED WORLD: INTERNET USAGE DYNAMIC IS DIGITAL AGE OR HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT?	88
Fayziyeva M.X.	TIJORAT BANKLARI TAKLIF ETGAN RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI BAHOLASH	104
Qobilov A.O', Abdulaxatov M.M., Rajabov Sh.B., Zokirov S.Z.	ASSOTSIATIV QOIDALAR VA BOZOR SAVATLARINING TAHLILI ..	115
Ризакулов Ш.Ш.	БЛОКЧЕЙН ТЕХНОЛОГИИ В ЭКОНОМИКЕ: НА ПРИМЕРЕ ЭЛЕКТРОННОГО ПРАВИТЕЛЬСТВО	121
Назарова Р.Р., Нигматуллаева Г.Н.	СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ ЭЛЕКТРОЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ УЗБЕКИСТАНА	126
Meyliev O.R., Gofurova K.X.	THE ROLE OF ELECTRONIC COMMERCE IN THE DIGITAL ECONOMY	132

Ma'murov B.X.	RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA HUDUDLAR IQTISODIYOTI TARKIBIY TUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISHNING MOHIYATI VA UNING OMILLARI	142
Гаипов Ж.Б.	ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ ПЛАТЕЖНЫХ СИСТЕМ НА ПРИБЫЛЬНОСТЬ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ	150
Maxmudov S.B.	MILLIY IQTISODIYOTDA EKSPORT AMALIYOTIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK TAHLILINI BAHOLASH ...	160
Nursaidov N.Y., Vafoev B.R.	PROBLEM OF LIMITED ACCESS TO THE INTERNET IN MOBILE LEARNING	172
Хидирова Б.И.	РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТНИ ШАКЛЛАНТИРИШГА НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР	179
Xalilova N.K.	O'ZBEKISTON SHAROITIDA XARIDORLARNI BOSHQARISH JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	187
Рахматова Ш.О.	РАҚАМЛИ ТРАНСФОРМАЦИЯ ШАРОИТИДА БИЗНЕСНИНГ ҚЎШИЛГАН ҚИЙМАТИНИ БАҲОЛАШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	196
Axmedova S.I.	RAQAMLI IQTISODIYOTDA SANOAT KORXONALARINING ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA XORIJIY MAMLUKATLAR TAJRIBASI	203
Мирзарахимова А.Б.	СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ТИЗИМИНИ РАҚАМЛАШТИРИШДА ЭЛЕКТРОН ТИББИЙ ЁЗУВЛАРНИНГ РОЛИ	209
Abdurakhmonov A.A.	O'ZBEKISTONDA RAQAMLASHTIRISH TENDENSIYALARI VA UNDAGI MAVJUD MUAMMOLAR	215
Abduraxmanova Z.T.	O'ZBEKISTONDA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISHNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYALARNING O'RNI	223
Mustafakulov O'U.	STATISTIKA TIZIMIDAGI RAQAMLI PLATFORMALARNI BAHOLASH VA ULARNI TANLASH	232
Tal'atova D.B.	RAQAMLI TENGSIZLIKNI BARQARORLASHTIRISHNING IQTISODIY O'SISHDAGI O'RNI	238
Nabiyeva F.O.	RAQAMLI BANKING: QIYINCHILIKLAR, RIVOJLANAYOTGAN TEXNOLOGIYA TENDENSIYALARI VA KELAJAKDAGI TADQIQOTLAR	244
Yax'yayev O.Y.	"JUST IN TIME" XALQARO MENEJMENT MODEL, O'RGANILISHI, AMALIYOTI, RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI	254
Yuldashov I.S., Ro'ziev N.I.	RAHBARNING BOSHQARUV KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH MEKANIZMLARINI O'RGANISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	260
Tўраева Н.О.	КИЧИК БИЗНЕС СУБЪЕКТЛАРИДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ЖИХАТЛАРИ	265
Muzaffarova D.M.	TASHKILOTNING FUNKSIONAL OPERATSIYALARINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISH YO'LLARI	275

Rustamova M.M.	KOTLIN TILIDA YARATILGAN XIZMAT SIFATINI BAHOLOVCHI “SAFE MOBILE” ILOVASI	285
Zikirullaeva N.	THE ROLE OF GOVERNMENT POLICIES IN ATTRACTING DIRECT FOREIGN INVESTMENTS	294
Anvarova M.M.	RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONINING KICHIK VA O‘RTA BIZNES KORXONALARIGA ASOSIY TA‘SIRI	305
Parpieva R.A., Norboyeva N.E., Anvarova M.M.	IMPROVING MEDIA LITERACY USING DIGITAL TECHNOLOGIES IN PROFESSIONAL EDUCATION	311

РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ВА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ
DIGITAL ECONOMY AND INFORMATION TECHNOLOGY
ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА И ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ

ЭЛЕКТРОН ИЛМИЙ ЖУРНАЛ

Мазкур электрон илмий журнал Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 19 декабрдаги “Оммавий ахборот ва коммуникациялар соҳасида давлат хизматлари кўрсатишнинг айрим маъмурий регламентларини тасдиқлаш тўғрисида”ги 1017-сонли қарорида белгиланган вазифалардан келиб чиқиб, Тошкент давлат иқтисодиёт университети томонидан 2021 йил март ойида таъсис этилган ҳамда халқаро интернет тармоғига жойлаштирилган.

This electronic scientific journal was established by the Tashkent State University of Economics in March 2021, based on the tasks defined in the decision of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated December 19, 2019 No. 1017 «On approval of some administrative regulations for the provision of public services in the field of public information and communications» posted on the internet.

Нашр қилинаётган “Рақамли иқтисодиёт ва ахборот технологиялари” электрон, илмий журнали Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 31 январдаги 332/6-сон қарори билан Иқтисодиёт фанлари бўйича “Фан доктори” илмий даражасига талабгорларнинг диссертация ишлари, илмий натижалари юзасидан илмий мақолалар эълон қилиниши лозим бўлган Республика илмий журналлари рўйхатига киритилган.

The electronic scientific journal “Digital economy and information technologies” published by the decision of the Higher Attestation Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated January 31, 2023 No. 332/6 announces scientific articles on the scientific results of dissertations of candidates for the degree of Doctor of Science in «Economic Sciences» included in the list of republican scientific journals that should be published.

Журналнинг интернет ахборот тармоғидаги манзили:

<https://dgeconomy.tsue.uz/jurnal>

The address of the journal on the internet:

<https://dgeconomy.tsue.uz/jurnal>

Ma'murov Baxtiyor Xolmatjanovich

TDIU huzuridagi "O'zbekistonni iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi, i.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya. Jahonda globallashev va xalqaro raqobatning kuchayib borishi, raqamlashtirish jarayonlarining kengayishi sharoitida hududlar iqtisodiyoti tarkibini takomillashtirish borasida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ilg'or hududlarni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashning zamonaviy metodologik yondashuvlarini ishlab chiqish, yuqori texnologiyalarga asoslangan tarmoqlarni jadal rivojlantirish, barcha hududlar o'rtasidagi ijtimoiy tavofutlarni qisqartirish, aholi bandligi va turmush darajasini ta'minlashni tartibga solish, boshqaruv tizimini nomarkazlashtirish siyosatini keng joriy qilish, hududlarda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik tizimlar hamda raqamli texnologiyalarning ta'sirini baholash bu boradagi ilmiy-tadqiqot ishlarining ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Kalit so'zlar. raqamli iqtisodiyot, hudud, tarkibiy siyosat, hudud tarkibiy siyosati, hududiy iqtisodiyot, hududiy iqtisodiy tizim, tarkibiy o'zgarishlar, raqobatbardoshlik, iqtisodiyot.

Kirish:

Yangi iqtisodiy sharoitlar va globallashev jarayonlari, iqtisodiy va ijtimoiy hayotning baynalmilallasuvi bilan bog'liqdir. Bu odatda boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va qabul qilishda, tovar va resurs bozorlarida raqobatni kuchaytirishda tobora muhim rol o'ynaydigan geosiyosatning ta'siri mamlakat milliy iqtisodiyotining umumiy tizimida O'zbekiston hududlarining o'rnini aniqlash muammosini yanada kuchaytirdi. Bugungi kunda bozordagi bo'shliqlarni aniqlash, hududlar, iqtisodiyotni ixtisoslash va diversifikatsiya qilishning eng istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash, hududlar oldidagi ustuvor vazifalardan biridir. Bu vazifalar, hududlar ijtimoiy-iqtisodiy tizimini rivojlantirishning umumiy vektorini belgilaydigan dastur va strategik hujjatlarga mos keladigan shaklda amalga oshirilishi kerakligini unutmazlik lozim.

Hududlar rivojlanishining tabiiy-geografik va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarining xilma-xilligini hisobga olish amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyatini, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish sur'atlari va nisbatlarini, mamlakatdagi tarkibiy o'zgarishlarni belgilaydi.

Hozirda O'zbekiston va uning hududlarida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Shu bilan birga, hududlarda raqamli texnologiyalarni rivojlantirishning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish, infratuzilmani shakllantirish, ijro etuvchi mahalliy hokimiyat organlari faoliyatini baholash mezonlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasiga yetarli o'rin ajratish, hududiy analitik-tahlil platformalarini yo'lga qo'yish, ochiq statistik ma'lumotlar bazasini shakllantirish, raqamli savodxonlikni hududlar miqyosida tabaqalashuvini qisqartirish kabi vazifalarni amalga oshirish lozim. Bu esa

hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga va undagi tarkibiy o'zgarishlarga raqamli texnologiyalar ta'sirini baholash amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari ko'lamini kengaytirishni taqozo etadi.

So'nggi yillarda raqamli iqtisodiyot elementlarining butun iqtisodiyotga kirib borishi jadallashmoqda. Mamlakatimizda "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasiga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarini raqamlashtirish, davlat axborot tizimlari va elektron xizmatlarni joriy etish, shuningdek, raqamli texnologiyalardan keng foydalanishni ta'minlash bo'yicha xalq ta'limi, davlat xizmatlari, sud, moliya va bank tizimida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Adabiyotlar tahlili:

Mintaqaviy iqtisodiyot nazariyasida asosiy ahamiyatga ega bo'lgan "hududiy iqtisodiy tizim" atamasi odatda, zamonaviy iqtisodiy maktablar va tendensiyalarga muvofiq shakllangan ta'riflar majmui sifatida talqin etiladi. Ushbu atama bo'yicha ba'zi ta'rif va izohlarning qiyosiy tahlilini amalga oshiramiz.

A.G.Granberg hududiy iqtisodiy tizimni "iqtisodiy makon" deb ta'riflagan: "Hududiy iqtisodiyotning asosiy tushunchalaridan biri bu hududning dastlabki g'oyasini ishlab chiqadigan iqtisodiy makondir. Iqtisodiy makon - bu ko'plab obyektlar va ular o'rtasidagi aloqalarni o'z ichiga olgan to'yingan hudud: aholi punktlari, sanoat korxonalari, iqtisodiy rivojlangan va rekreatsion hududlar, transport va muhandislik tarmoqlari va boshqalar. Har bir hududning o'ziga xos ichki makon va tashqi makon bilan aloqalari mavjud".

A.N.Ayupovning fikriga ko'ra, "hududiy iqtisodiy tizim - hududlararo mehnat taqsimoti va integratsiya asosida shakllanadigan xalq xo'jaligi majmuasi. Ushbu tizim tuzilmaning murakkabligida tubdan farq qiladi va oddiyroq tuzilmalarga bo'linishi mumkin".

M.V.Zelinskayahududnitizimliyondashuvnuqtainazaridanko'ribchiqadivaunga "hududiy iqtisodiy tizim - bu iqtisodiy tizimlarning birlashishi va uyg'unlashuvi natijasida shakllanadigan, uning faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini boshqarish tizimini yaratadigan, shuningdek integral sub'ektning murakkab shakli bo'lgan mulkiy munosabatlar majmui" deb, ta'rif beradi. M.V.Zelinskayaga oid adabiyotlar tahliliga ko'ra, hududga tizim sifatida quyidagi ayrim xususiyatlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

☼ hududning iqtisodiy rivojlanish darajasi, shuningdek ishlab chiqaruvchi kuchlarning konsentratsiya darajasi;

☼ ishlab chiqarish omillarining tarixan rivojlangan o'ziga xos xususiyatlari, hududning ijtimoiy-iqtisodiy tizimini izchil rivojlantirish imkoniyati, uning sifat jihatidan boshqa darajaga o'tish imkoniyati, innovatsion o'zgarishlarga moyilligi;

☼ ijtimoiy-demografik xususiyatlar, jumladan, hudud aholisi soni, aholi zichligi, jinsi va yoshi, aholining ta'lim darajasi, iqtisodiy faollik darajasi, ishlab chiqarish jarayonlari va kundalik hayotda innovatsiyalar joriy qilish, zamonaviy, shu jumladan raqamli texnologiyalardan foydalanish qobiliyati. Pirovard natijada ushbu ijtimoiy-iqtisodiy tizimning mehnat va intellektual salohiyatini shakllantiradi;

☼ hududlarda aholi jon boshiga o'rtacha daromadlari, ularning tabaqalanishi, shuningdek, ushbu hududning investitsion salohiyati, hududiy mustaqillik darajasi. Bundan tashqari, daromadlar darajasi hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizim samaradorligining aholi turmush darajasi va sifati kabi muhim ko'rsatkichlarini belgilaydi, ular ijtimoiy barqarorlik va hudud aholisining iqtisodiy faolligini shakllantiradi;

☼ hududning mamlakat xalq xo'jaligida tutgan o'rni va roli. Hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizimni rivojlantirishning institutsional asoslarini shakllantirish ko'p jihatdan hududning mamlakat xalq xo'jaligida tutgan o'rni va roliga bog'liq hisoblanadi.

A.I.Borodin hamda N.N.Kisevalarning ta'riflashlaricha, "hududiy iqtisodiy tizim o'ziga xos resurslarga asoslangan va manfaatdor tomonlar guruhlari o'rtasidagi munosabatlarning murakkab tuzilmasiga ega bo'lgan, ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik quyi tizimlarning dinamik rivojlanishiga intiladigan xalq xo'jaligi majmuasining bir qismidir. Hududiy iqtisodiy tizimning asosiy vazifalari tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va tabiiy muhitning mahalliy xususiyatlardan kelib chiqqan holda takror ishlab chiqarishdir".

Demak, hududning ham tarkibiy elementi, ham milliy xo'jalik tizimining tarkibiy elementi bo'lgan hududiy iqtisodiy tizim murakkab dinamik tuzilishga ega bo'lib, hudud tarkibiy siyosatining obyekti hisoblanadi. Bu esa hududiy iqtisodiy tizimning innovatsion rivojlanish shartlariga mos kelishini ta'minlaydi. Shuningdek, hududiy tizim faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun asos bo'lgan tarkibiy o'zgarishlar ularning innovatsion tarkibiy qismidir. Bu o'zgarishlar stixiyali (o'z-o'zidan, ko'r-ko'rona) bo'lmasligi, balki hududning tarkibiy siyosati hamda strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish doirasida tartibga solinishi kerak.

Iqtisodiyot tarmoqlarining xususiy biznes bilan hamkorlik qilish asosida rivojlanishi va ma'muriy boshqaruv, tartibga solish va moliyaviy yondashuvlar hisobiga ajratilgan moliyaviy resurslarni nazorat qilish, taqsimlash va qayta taqsimlashni o'z ichiga olgan davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati "tarkibiy siyosat" deb ataladi.

Tarkibiy o'zgarishlar barqaror iqtisodiy rivojlanishning asosidir. I.V.Garbuz tarkibiy o'zgarishlarni "iqtisodiy samaradorlikning o'sishi yoki pasayishini ta'minlaydigan hududiy iqtisodiy tizimlar ishlab chiqarish tarmoqlari va sohalari o'rtasidagi miqdoriy munosabatlarning sezilarli o'zgarishi jarayoni" deb, ta'riflaydi.

Tadqiqot metodologiyasi:


Tadqiqotda umumlashtirish va tizimlashtirish, statistik, tarkibiy va qiyosiy tahlil, grafik tasvirlash, ekspert baholash va strategik rejalashtirish usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar:

Hududiy iqtisodiyot o'zining moliyaviy asosiga, qo'shimcha resurslar manbalariga, shuningdek, ularni taqsimlash mexanizmiga ega bo'lgan yaxlit tizim sifatida tahlil qilinishi kerak. Hududiy rivojlanishni shakllantiruvchi asosiy omillarga quyidagilar kiradi: ishlab chiqarish, infratuzilmaviy, ilmiy-texnikaviy, malakaviy, eksport, rekreatsion salohiyat va boshqalar.

Hudud bir-biriga bog'langan va bir-biri bilan ma'lum bir tarzda o'zaro ta'sir qiluvchi bir qator kichik tizimlardan tashkil topgan murakkab tizimdir (1-rasm).

Hududiy miqyosda iqtisodiy rivojlanishni boshqarishning muhimligi bozor iqtisodiyotining mavjud kamchiliklari, birinchi navbatda, uning iqtisodiy foyda olishga yo'naltirilganligi va ijtimoiy adolat muammolariga e'tibor bermasligi bilan bog'liq. Shu bilan birga, iqtisodiy rivojlanishni hududiy darajada boshqarishning maqsadga muvofiqligi mavjud iqtisodiy tizimning o'ziga xos xususiyatlari, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va hududiy taqsimoti jarayonida o'ziga xos xususiyatlarning mavjudligi, geografik va demografik xususiyatlar bilan asoslanadi.



1-rasm. Hudud tuzilmasining elementlari.

Tarkibiy siyosat viloyat, shahar (tuman) va davlat darajalarida tuzilishi va amalga oshirilishi mumkin. Bu tarkibiy siyosat boshqa siyosatlar kabi, hududiy darajada tuzilgan siyosatning ham maqsadlari, vazifalari, obyektlari va subektlari mavjud (2-rasm).

Hududiy darajadagi tarkibiy siyosat davlatning tarkibiy siyosatini, hududiy darajadagi me'yoriy hujjatlarni, shuningdek, hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizimni rivojlantirishning asosiy maqsadlari va yo'nalishlarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi.


Tarmoqlar, hududiy-tarmoq va tarmoqlararo komplekslar hamda korxonalar majmui sifatida hududiy iqtisodiy tizim hudud tarkibiy siyosatining obyekti hisoblanadi. Hudud tarkibiy siyosati obyektining bunday ko'rinishi tarkibiy o'zgarishlarga tizimli yondashuvni ta'minlaydi.

Shundayqilib, hududiy iqtisodiy tizim barcha sub'ektlarning konsensusini nazarda tutgan holda hududning tarkibiy siyosati doirasida amalga oshiriladigan tarkibiy o'zgarishlarning murakkab va ko'p qirrali obyektidir: hududiy hokimiyat organlari, tadbirkorlik va uning vakillari, fan va ta'lim muassasalari, kasaba uyushmalari va mahalliy aholi.

Globalashuv jarayonlari va ijtimoiy-iqtisodiy tizim rivojlanishidagi noaniqliklarning kuchayishi natijasida hududiy iqtisodiyot tarkibini samarali tashkil etish muammosining dolzarbligi yanada oshib bormoqda. Oldindan aytib bo'lmaydigan, noaniqlik va xavfning yuqori darajasi sharoitida iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlash masalasi davlat va hududiy darajada katta ahamiyatga ega.

Bugungi kunda davlat barqaror iqtisodiy o'sish uchun motivatsiya shakllantirishi yetarli darajada emas deyishimiz mumkin. Sababi soliq yukining ortishi kuzatilmoqda, kredit olish qiyinligicha qolmoqda va bu ishlab chiqarish o'sishini sezilarli darajada sekinlashtiradi. Ishlab chiqarishning o'sishiga to'sqinlik qiluvchi omillar qatorida aholi o'rtasida mahalliy korxonalar mahsulotlariga talabning yetarli emasligi, moliyaviy resurslarning yetishmasligi,

turmuish darajasi va sifatining pastligi tufayli yuzaga kelgan iqtisodiy vaziyatning noaniqligi va xavfini ham ko'rsatish mumkin.



2-rasm. Hududiy rivojlanish tarkibiy siyosatining asosiy elementlari²⁷.

Iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar bu — tarmoqlar, sohalar, hududlar, shuningdek, tashkilotlar turlari, texnologik tuzilmalari va iqtisodiy tizimning boshqa xususiyatlarining miqdoriy nisbatlarida ko'zga ko'rinadigan o'zgarishlar bo'lib, bozorlarda raqobatbardoshlikning o'sishiga yoki pasayishiga, iqtisodiy samaradorlikka yordam beradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, hududiy iqtisodiyot tuzilmasini o'zgartirish sanoat va texnologik tuzilmalarni o'zgartirish, respublika va hududiy bozorlarda yirik, o'rta, kichik korxonalar egallagan bozor ulushlarini farqlash bilan birga amalga oshiriladi.


Hududiy iqtisodiyot tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar vaqt o'lchovida, tarkibiy o'zgarishlarda esa davlatning tarkibiy siyosati va iqtisodiyotning optimal tuzilishiga erishish uchun islohotlar jarayoni.

Zamonaviy talqinda iqtisodiyotning tarkibi (shu jumladan, hududiy darajada) bu iqtisodiyot, iqtisodiy obyekt yoki iqtisodiy kategoriyaning muayyan belgilarga ko'ra tarkibiy qismlarga bo'linishi, bu tarkibiy qismlar o'rtasidagi munosabatlarning o'rnatilishi; iqtisodiy obyektning tarkibi, tuzilishi.

Hududiy iqtisodiy tizimning alohida elementlari o'rtasidagi xususiyatlar va munosabatlarga qarab, uning tuzilishini quyidagi turlarini ajratib ko'rsatish mumkin (3-rasm).

Reproduktiv tuzilma ijtimoiy mahsulotning xarajat va funksional mazmuni bo'yicha bo'linishi bo'lib, ishlab chiqarish tizimining tegishli ravishda ikkiga bo'linishini ko'rsatadi. Umuman olganda ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligi - bu har bir bo'linmaning samaradorligida namoyon bo'ladigan, ichki ishlab chiqarish jarayoni va ushbu birliklarning o'zaro ta'siridan natija ko'rsatadigan haqiqiy takror ishlab chiqarish jarayonining samaradorligi.

²⁷ Ilmiy adabiyotlarni o'rganish asosida muallif tomonidan shakllantirilgan



3-rasm. Hududiy iqtisodiy tizim tuzilmalarining turlari²⁸.

Tarmoq tuzilmasi hududiy iqtisodiyot doirasida sanoat, tarmoqlar yoki iqtisodiy faoliyat turlarini taqsimlanishini nazarda tutadi. Iqtisodiyotning tarmoq tuzilmasi - bu xo'jalik faoliyatining xilma-xilligi va mulkchilik shakllarini hisobga olgan holda ma'lum institutsional qismlarning bo'linishi va ajratilishidir. Iqtisodiyot tuzilmasining asosiy tarkibiy qismi bu takror ishlab chiqarish jarayonida o'xshash funksiyalarni bajaradigan va daromadlar va xarajatlarning o'xshash tuzilishiga ega bo'lgan bir xil turdagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar majmuasidir.

Zamonaviy adabiyotlarda iqtisodiyotning quyidagi to'rtta sektorini ajratish ko'rsatiladi:

- ☼ ishlab chiqarish sanoati, o'rmon xo'jaligi, baliqchilik, ovchilik va qishloq xo'jaligi;
- ☼ elektr energiyasi, gaz, suv ta'minoti, qayta ishlash sanoati, qurilish ishlab chiqarish;
- ☼ xizmat ko'rsatish sohalari;
- ☼ boshqaruv, fan, dasturlash, axborot va ilmiy xizmatlar.

Tarkibiy siyosatni ishlab chiqishda ham milliy, ham hududiy darajadagi iqtisodiyotning tuzilishini tahlil qilish katta ahamiyatga ega. Iqtisodiy obyektlarning hududiy taqsimlanishiga ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy-geografik omillar ta'sir ko'rsatadi. Resurslarga hamda bozorlarga hududiy yaqinlik, shuningdek, transport aloqalarini to'g'ri tashkil qilish va aholini ish bilan ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Iqtisodiyotning ijtimoiy tuzilishi o'zaro munosabatlar asosida birlashtirilgan ijtimoiy-iqtisodiy tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi.

Misol tariqasida mehnat faoliyati turlarini ko'rib chiqishimiz mumkin: malakali yoki malakasiz; yosh va jins xususiyatlari bo'yicha: pensionerlar, yoshlar va boshqalar; korxonalarining faoliyat ko'lami bo'yicha: yirik, o'rta, kichik.

Demak, hududiy iqtisodiy tizim elementlarining turli-tumanligi va murakkabligi tufayli uni tuzilishga bo'lgan yondashuvlarning hech biri iqtisodiyot tuzilmasi haqida yaxlit ko'rinishni bermaydi. Shu bois samarali tarkibiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun barcha yondashuvlardan birgalikda foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Raqamlashtirish sharoitida davlat va hududiy darajadagi tarkibiy o'zgarishlar murosoli bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Bizningcha, hududiy iqtisodiyot tarkibining takomillashtirilishi iqtisodiyotda qabul qilinadigan boshqaruv qarorlarining nosimmetrikligi, shuningdek, raqamli iqtisodiyot samaradorligini oshirish maqsadga muvofiqligi bilan bog'liq.

Aqlli shaharlar, uy-joy kommunal xo'jaligi hamda davlat xizmatlarini raqamlashtirish O'zbekiston hududlarida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari hisoblanadi. Iqtisodiyotni rivojlantirish uchun hududlarning baholash usullarini ishlab chiqish zarur, bu esa ushbu yo'nalishdagi ilg'or hududlarni aniqlash hamda ularning tajribalarini o'ziga hos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda boshqa rivojlanishdan ortda qolayotgan hududlarga tajriba sifatida foydalanish imkonini beradi.

²⁸ Ilmiy adabiyotlarni o'rganish asosida muallif tomonidan shakllantirilgan


Hududiy iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirishda salbiy oqibatlarining oldini olishga qaratilgan bo'lishi va oldindan belgilangan chora-tadbirlar rejasi bo'lishi kerak. Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarga bo'lgan ehtiyojning mavjudligi iqtisodiyotning hududiy tuzilishini tahlil qilish va baholash natijalari bilan belgilanadi hamda keyingi strategik o'zgarishlar uchun asos hisoblanadi.

Fikrimizcha, hududiy iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni quyidagi turlarga ajratish mumkin (4-rasm).

Xaotik (betartib) tarkibiy o'zgarishlar – rejalashtirilgan o'zgarishlarning strategik vektori bo'lmagan tarkibiy o'zgarishlarning bir turi. Tarkibiy o'zgarishlarning bu turi ko'pincha zid chora-tadbirlar orqali, o'z-o'zidan amalga oshiriladi. Bu esa hududiy iqtisodiyotning o'sishiga olib kelmaydi.

Ma'muriy tarkibiy o'zgarishlar – bu hududiy dasturlarni ishlab chiqadigan va ular doirasida korxonalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlovchi hududiy hokimiyat organlarining maqsadli harakatlariga asoslanadi. Ularning tuzilmasi hamkorlik va integratsiya bo'yicha davlat darajasida qarorlar qabul qilinishi hisobiga o'zgartiriladi.

Davlat tomonidan qabul qilingan qarorlarning birlashishi yoki hamkorligi tufayli tarkibiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Kompaniyalar boshqaruvi faqat davlat qarorlarining ijrochisi bo'lib, ularning oqibatlari uchun javobgar emas va o'z resurslarini xavf ostiga qo'ymaydi, shuning uchun ular har doim ham korxonalar samaradorligini oshirishga olib kelmaydi.



4-rasm. Hududiy iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarning turlari²⁹.

Tarkibiy o'zgarishlarning bozor turi – bu davlat organlaridan keladigan tashqi rag'batlar ta'sirida shakllangan biznes hamjamiyatining ichki motivatsiyasiga asoslangan tarkibiy o'zgarish. Tadbirkorlik tuzilmalarining yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etish va mavjudlarini modernizatsiya qilish bo'yicha mustaqil harakatlarni amalga oshirishi uchun iqtisodiy imtiyozlarni (soliq, narx, kredit va boshqalar) shakllantirishga asoslanadi. Tarkibiy o'zgarishlarning ushbu turi hududni rivojlantirishning strategik maqsadlariga nisbatan mos va xayrixox bo'lgan barcha sub'ektlar uchun bir xil sharoitlar hamda qonun qoidalar amal qiladigan hollarda samarali hisoblanadi.

Xulosa:

Bizningcha, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish hamda rivojlantirishda tarkibiy siyosat sub'ektlarining an'anaviy tarzda ajratilgan tarkibi barcha manfaatdor tomonlarni hisobga olgan holda kengaytirilishi kerak. Subektlar tarkibiga fan va ta'lim muassasalari (OTM, ITM

²⁹ Muallif tomonidan shakllantirilgan

va boshq.), kasaba uyushmalari va mahalliy aholini jalb qilish maqsadga muvofiqdir, chunki hududiy iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirishda ularning manfaatlarini hisobga olmasdan turib, ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi. Shu bilan birga, sub'ektlarning kengaytirilgan tarkibining o'zaro hamkorligi sheriklik va kelishuv (konsensus) tamoyillariga asoslanishi kerak.

Fikrimizcha, yuqorida keltirilgan tarkibiy o'zgarishlarning eng maqbuli bozor va ma'muriy turlardir. Bugungi kunda bozor va ma'muriy o'zgarishlar jarayonida hududiy rivojlanish manfaatdor tomonlarining ishtirokisiz amalga oshirilmaydi. Manfaaddor tomonlar (mahalliy hokimiyat, biznes, ilmiy-tadqiqot muassasalari, ta'lim tashkilotlari, kasaba uyushmalari va aholi) iqtisodiyotning tarkibiy o'zgarishi jarayoniga muayyan ta'sir ko'rsatadi, ammo eng katta ta'sir ilmiy va ta'lim muassasalaridan kelib chiqadi, bu ularning iqtisodiyotni raqamlashtirishga tayyorligi bilan izohlanishi mumkin.

Ta'kidlash joizki, hudud iqtisodiyotidagi tartibsiz tarkibiy o'zgarishlarni to'liq bartaraf etish hamda strategiya va dasturlar ishlab chiqish doirasida jamiyat va iqtisodiyot rivojlanishining joriy tendensiyalarini, jumladan, globallashuv, raqamlashtirish, insonparvarlik va boshqalarni to'liq hisobga olgan holda bozor va ma'muriy o'zgarishlar uchun shart-sharoitlar yaratish hududiy davlat hokimiyati organlarining asosiy vazifasi bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullaev va boshq. Raqamli iqtisodiyot // O'quv qo'llanma. LESSON PRESS. 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi
3. Аюпов, А.Н. Региональная экономика / А.Н. Аюпов. - Бишкек: Изд-во КРСУ, 2015. — С. 121.
4. Бородин, А.И. Региональные экономические системы и их устойчивость / А.И. Бородин, Н.Н. Киселева // Вестник Удмуртского ун-та. - 2011. — вып.4. — С. 4.
5. Гарбуз, И.В. Государственное управление структурными преобразованиями экономики региона: дис. канд. экон. наук: 08.00.05 / Гарбуз Ирина Владимировна. - Курск, 2016. - С. 28.
6. Гранберг, А.Г. Основы региональной экономики: учебник для вузов / А.Г. Гранберг; Гос. ун-т -Высшая школа экономики. - 4-е изд. - М.: Изд. дом ГУ ВШЭ, 2004. — 25
7. Зелинская, М.В. Региональная экономическая система как интегральный субъект эволюционного процесса / М.В. Зелинская // Экономика и управление. — 2009. - № 10(59). — С. 228.
8. Маъмуров Б.Х. (2016) Государственная поддержка инновационной активности системы предпринимательства //Технологии информационного общества. – С. 318-319.
9. Маъмуров Б.Х. (2020) Цифровая трансформация в экономике Узбекистана // Big Data and Advanced Analytics. – №. 6-2. – С. 181-187.



РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ВА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ
DIGITAL ECONOMY AND INFORMATION TECHNOLOGY
ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА И ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ

Электрон илимий журнал | Electronic scientific journal

Muharrirlar:
Yaxshiyev H.T.
Matxo'jayev A.O.

Musahhih:
Matxo'jayev A.O.

Tehnik muharrir:
Mirzayev J.O'.

Litsenziya AI № 2537 08.02.2022 y. Bosishga ruxsat etildi 19.10.2023.
Qog'oz bichimi 60x84 ¹/₈. Shartli bosma tabog'i 19,9. Raqamli bosma.
Adadi 50 nusxa. №16/10-2023 - sonli buyurtma.

“Zarafshon Foto” MCHJning matbaa bo'limida chop etildi.
100164, Toshkent sh., Mirzo Ulug'bek tumani, Shahriobod ko'chasi, 3-uy.

CONFERENCE "GLOBAL AND NATIONAL ECONOMIC TRENDS" 19-20 OCTOBER

1st DIRECTION: TRENDS AND PROSPECTIVE DIRECTIONS OF GLOBAL ECONOMIC DEVELOPMENT.

CONFERENCE "GLOBAL AND NATIONAL ECONOMIC

TRENDS"

19-20 OCTOBER 2023

TASHKENT STATE

UNIVERSITY OF ECONOMICS,

TASHKENT, UZBEKISTAN

CONFERENCE "GLOBAL AND NATIONAL ECONOMIC TRENDS" AND ICDSIS

"NEW2AN,

Parallel conferences

CONFERENCE "IFRS" ФОРУМ

DEVELOPMENT STRATEGY:

GLOBAL ECONOMIC TRENDS

CONFERENCE "GLOBAL AND NATIONAL ECONOMIC TRENDS"

TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ECONOMICS

ЎНАЛИШ: ГЛОБАЛ ИҚТИСОДИЁТНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ ВА ИСТИҚБОЛЛИ ЎНАЛИШЛАРИ. "Глобал ва миллий иқтисодиёт трендлари" номи конференция

"IFRS" НОМЛИ КОНФЕРЕНЦИЯ

PARALLEL CONFERENCES

"NEW2AN, ICDSIS

AND ICDSIS



- Conditions for improvement
- Corporate Account
- Institutional problems
- Training personnel for
- Business environment
- Digital technologies in

CONFERENCE

"S" CONFERENCE "GLOBAL AND NATIONAL ECONOMIC TRENDS" 19-20 OCTOBER



+998 71 239-28-94 <http://dgeconomy.tsue.uz/>

dgeconomy_tdiu@mail.ru, dgeconomy@tsue.uz

100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy.

ФОРУМ

- Gender Equality
- Industry 4.0
- Sustainable Agricultural Development

- Digit
- Gree
- Envir
- Alter
- Artif
- digit